

OLIV TA’LIM TIZIMIDA TALABALARNING TA’LIM SIFATINI OSHIRISH JARAYONIDA RAQAMLI TEXNOLOGIYALARNING AHAMIYATI

Guliston davlat universiteti
Psixologiya yo’nalishi magistranti
Tojiboyeva Ulbo’sin Hasan qizi
ulbosintojiboyeva@gmail.com

<https://doi.org/10.5281/zenodo.19429519>

Annotatsiya: Ushbu maqolada oliy ta’lim tizimida talabalarning ta’lim sifatini o’stish jarayonida raqamli texnologiyalarning ahamiyati, xususiyatlari va bu jarayonga qo’shadigan hissasi va beradigan imkoniyatlari, shu bilan birgalikda, bu texnologiyalar bilan erishilgan yutuqlar haqida so’z boradi. Shuningdek, prezidentimizning ta’lim sifatini oshirish va taraqqiyotga erishishdagi raqamli bilim va texnologiyalarning ahamiyati haqidagi fikrlari ham keltirilgan.

Kalit so’zlar: raqamli bilimlar, raqamli texnologiyalar, ta’lim sifati, sun’iy intellekt, globallashtirish, masofaviy ta’lim, shaxsiylashtirilgan ta’lim, rivojlanish, taraqqiyot, internet.

Аннотация: В данной статье рассматриваются важность, характеристики и вклад цифровых технологий в повышение качества образования студентов в системе высшего образования, а также предоставляемые ими возможности и достижения, достигнутые с помощью этих технологий. В ней также представлены взгляды нашего президента на важность цифровых знаний и технологий для повышения качества образования и достижения прогресса.

Ключевые слова: Цифровые знания, цифровые технологии, качество образования, искусственный интеллект, глобализация, дистанционное обучение, персонализированное обучение, развитие, прогресс, интернет.

Abstract: This article discusses the importance, characteristics, and contribution of digital technologies to the quality of education of students in the higher education system, as well as the opportunities they provide, as well as the achievements achieved with these technologies. It also presents the views of our president on the importance of digital knowledge and technologies in improving the quality of education and achieving progress.

Keywords: Digital knowledge, digital technologies, quality of education, artificial intelligence, globalization, distance learning, personalized learning, development, progress, internet.

Raqamli texnologiyalar hozirgi kunda inson faoliyatining barcha sohalariga chuqur kirib bormoqda, xususan, ta’lim tizimi ham jadal raqamlashtirilmoqda. Oliy va umumiy o’rta ta’lim muassasalarida zamonaviy ta’lim texnologiyalaridan foydalanish raqamli kompetensiyalarni shakllantirish, bilim olish jarayonini avtomatlashtirish va interaktiv ta’lim usullaridan foydalanish imkonini bermogda. 2025-yilga kelib, O’zbekistonda raqamli ta’lim infratuzilmasi sezilarli darajada rivojlandi. Oliy ta’lim muassasalarida onlayn platformalar, masofaviy ta’lim tizimlari va sun’iy intellekt yordamida moslashtirilgan o’qitish usullari joriy qilindi. Xalqaro tajriba va zamonaviy innovatsion texnologiyalarni integratsiya qilish orqali ta’lim tizimining sifati oshirilmoqda.[1]

O’zbekiston Respublikasi Prezidenti Shavkat Mirziyoyev 2020-yil Oliy Majlisga qilgan murojaatnomasida: “Taraqqiyotga erishish uchun raqamli bilimlar va zamonaviy axborot texnologiyalarini egallashimiz zarur va shart. Bu bizga yuksalishning eng qisqa yo’lidan borish imkoniyatini beradi”,-deya ta’kidlaganlari mamlakatimizda faqat raqamli iqtisodiyotni

rivojlantirishda tub burulish yasash, balki raqamli texnologiyalarni ijtimoiy hayotning barcha sohalariga, jumladan, ta’lim tizimiga ham joriy etishni nazarda tutgan bo‘lsalar ajab emas.

Ta’lim tizimida raqamli texnologiyalardan foydalanishning ommalashuvini asosiy sababi sifatida nafaqat pedagoglar uchun, balki, talabalar uchun ham qulay bo‘lgan tomonlarining mavjudligini ko‘rsatishimiz mumkin. Masalan, talabalar o‘zlari istagan xolda va xohlagan vaqtda ta’lim olish imkoniga ega bo‘ladi. Bundan tashqari ta’limda raqamli texnologiyalardan foydalanish orqali biz quyidagi:

birinchidan, pedagog kadrlar yetishmaydigan hududlarda ham talabalarni onlayn yoki masofaviy shaklda ta’lim olishlari;

ikkinchidan, o‘qituvchi va talabalarining internet tarmog‘idan o‘zlari istagan fanga oid ma’lumotlarni olish, izlash, tarqatish va undan foydalanish;

uchinchidan, tizimda raqamli texnologiyalardan foydalanish asosida ta’lim samaradorligini oshirish, vaqt va mablag‘ sarfini kamaytirish;

to‘rtinchidan, ta’lim jarayoniga raqamli texnologiyalarni qo‘llash orqali talabalarining shunchaki, fanlarni o‘zlashtirishlari emas, balki ularning bilimlarni qay darajada o‘zlashtirayotganligi va muammoli vaziyatlarga tayyorligi hamda ularda tanqidiy tafakkurni shakllanganligi, shuningdek, talabalarining mustaqil o‘z ustida ishlay olish qobiliyatlarini rivojlantirishga yo‘naltirish kabi imkoniyatlarga ega bo‘lamiz.[2]

Bundan tashqari, raqamli texnologiyalar yordamida talabalar bilim olish imkoniyatlariga kengroq yo‘l ochmoqda. Internet va raqamli ta’lim platformalari orqali turli xil o‘quv resurslari, ilmiy maqolalar, virtual laboratoriyalar va simulyatsiyalarga kirish imkoniyati yaratilmoqda. Bu esa talabalarga mavzularni yanada chuqurroq tushunishga va mustaqil o‘qishga imkon beradi. Shuningdek, bunday resurslar chekka hududlarda joylashgan talabalar uchun ham teng imkoniyatlar yaratadi, chunki ular bir xil sifatdagi bilimga ega bo‘lishlari mumkin. Raqamli texnologiyalar yordamida talabalar natijalarini doimiy kuzatish va baholash imkoniyati ham mavjud. Statistik dasturlar orqali talabalarining rivojlanish darajasi tahlil qilinadi, ularning qiyinchiliklari aniqlanib, bu muammolarni hal qilish uchun qo‘shimcha choralar ko‘riladi. Bu o‘qituvchilarga talabalar bilan individual ishlash, ularning o‘zlashtirish jarayonini optimallashtirish imkonini beradi.[3]

Xulosa sifatida shuni aytish mumkinki, ta’lim tizimida raqamli texnologiyalarning joriy etilishi ta’lim sifatini oshirishda va yanada chuqurroq bilim egallashda juda katta ahamiyat kasb etadi. Shuningdek, zamonaviy o‘quv jarayonlarini samarali va interaktiv qilish, ta’lim sifatini oshirish va talabalarga yangi imkoniyatlar yaratish nuqtai nazaridan juda muhimdir. Talabalarga ta’limni raqamlashtirish har qanday sharoitda va har qanday vaqtda uydan chiqmagan holda masofadan bilim olish imkonini beradi.

Foydalanilgan adabiyotlar.

1. “Ta’lim muhitining transformatsiyasi: zamonaviy o‘qitishda raqamli texnologiyalarning o‘rni” mavzusidagi xalqaro ilmiy-amaliy konferensiya, 2025- yil 16-aprel, Toshkent

2. Oripov J., To‘xtayev O. Ta’limda raqamli texnologiyalardan foydalanishning dolzarb jihatlari va ahamiyati. —"Science and innovation" elektron jurnali. № 6, avgust, 2022 yil. [308-312].

3. Xoldarova Fotimaxon Maxammadjon qizi. Ta’lim tizimida raqamli texnologiyalarning o’rni va ahamiyati [1-10-b].

4. Turdalievich, M. D. Psychological aspects of the influence of internet communication on the social behavior of young/PEOPLE SCIENCE AND INNOVATION INTERNATIONAL SCIENTIFIC JOURNAL VOLUME 3 ISSUE 4 APRIL 2024 ISSN: 2181-3337| SCIENTISTS. UZ B, 3.

5. Turdaliyevich, M. D. (2024). PSYCHOLOGICAL ASPECTS OF THE INFLUENCE OF INTERNET COMMUNICATION ON THE SOCIAL ENVIRONMENT OF YOUTH. Eurasian Journal of Academic Research, 4(5-1), 110-115.

6. Turdalievich, M. J. PSYCHOLOGICAL ASPECTS OF INTERNET-COMMUNICATION IN SOCIAL SOCIETY OF YOUTH (The results of the study of Internet dependence on the method of Kimberly-Yang).

7. Mirzayev Djamshid Turdaliyevich, Tojiboyeva Ulbo’sin Hasan qizi. VOYAGA YETMAGANLAR O’RTASIDAGI HUQUQBUZARLIKLARNING PROFILAKTIKASI. REPUBLICAN SCIENTIFIC AND PRACTICAL FORUM “STRATEGIES FOR THE FORMATION OF IMMUNITY TO OFFENSES IN SUBJECTS OF THE CONTINUOUS EDUCATIONAL PROCESS”, NOVEMBER 14, 2025

8. Mirzayev Djamshid Turdaliyevich, Miraxmatova Muqaddam Ilxomjon qizi. HUQUQIY MADANIYAT VA JAMIYAT. REPUBLICAN SCIENTIFIC AND PRACTICAL FORUM “STRATEGIES FOR THE FORMATION OF IMMUNITY TO OFFENSES IN SUBJECTS OF THE CONTINUOUS EDUCATIONAL PROCESS”, NOVEMBER 14, 2025.